

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA MILLIY RUH IFODASI

Solijonova Sevara Akmaljon qizi
Namangan davlat universiteti Filologiya fakulteti
o'zbek tili yo'nalishi 4-kurs talabasi
Tel: +998940443204

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21205816>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she'riyatida aks etgan xalqparvarlik, vatanparvarlik hamda yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashga oid masalalarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Xalqona so'z, vatan timsoli, milliy ruh, dil va til .

Аннотация. В данной статье акцентируется внимание на вопросах народного духа, патриотизма, отражённых в поэзии Мухаммада Юсуфа, а также на вопросах воспитания молодёжи в национальном духе.

Ключевые слова: Народное слово, символ родины, национальный дух, душа и язык.

Abstract. This article focuses on the issues of public spirit, patriotism reflected in the poetry of Muhammad Yusuf, and the matters of educating the youth in the national spirit.

Keywords: Folk word, symbol of the homeland, national spirit, heart and language.

O'zbekiston xalq shoiri, o'zining xalqona she'rlari bilan yosh-u qarining ko'nglidan chuqur joy olgan ijodkor Muhammad Yusuf xalq orasida hamon Vatan kuychisi, milliy ruh ifodachisi sifatida ulug'lanib kelinmoqda. Shoirning she'rlari mutolaa qiluvchilarni kuldiradi, yig'latadi, taskin beradi va o'z vaqtida chuqur o'yg'a ham toldiradi. Muhammad Yusuf adabiyotga kech kelib, erta ketgan bo'lsa-da, yozib qoldirgan buyuk merosi qalbimizning tub-tubidan o'chmas iz qoldirgan.

“Muhammad Yusuf she'rlari xalq dili va tiliga hamohangligi, ifoda uslubining sodda va benazirligi uchun ham nazm ixlosmandlari tomonidan iliq kutib olindi, ularda el dardi, orzu-armonlari, yorqin umidlari dadil qalamga olinayotgani uchun ham millionlab she'riyat shaydolari shoirni jon-u dildan sevib qolishdi” – deydi Oshiq Erkin. Haqiqatan ham, shoir el orasida tez og'izga tushgan. Uning she'rlarida xalqning baxti, millatning ruhiyati, ya'ni milliy ruh baralla kuylanadi. Ruhiyat manzaralarini lo'nda va yakdil ifodalay olish Muhammad Yusuf she'riy uslubining yetakchi xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Mohiyatan umuminsoniyatga daxldor bo'lsa-da, adabiyot milliy shaklda namoyon bo'ladi. O'zida millatning ruhini ifodalaydi. Bu xususiyatlar she'riyatda, ayniqsa, yaqqolroq bo'y ko'rsatadi. Zamonlar almashinadi, tafakkur, taxayyul evriladi, she'riyatda surat – shakl o'zgarib, yangilanib boradi. Biroq har qanday holda adabiyotning, she'riyatning darajasi ikki mezon – milliy ruh va mahoratga ko'ra belgilanadi. Muhammad Yusuf bu ikki mezonni tarozi pallasidek teng tuta olgan ijodkorlardan biridir. Shoirning “O'zbekiston”, “Vatan”, “O'zbek qizlari”, “Tilak”, “Sodda Muhammadman”, “Do'ppi”, “Ko'klamoyim” kabi she'rlari ham yuqoridagi fikrimizning yaqqol dalilidir. Uning “Sodda Muhammadman” she'rida ham milliy ruh o'z ifodasini topgan:

Yurtim suluvlari sizga yo'q ta'rif

Qoshingizda o'sma yursa sirg'alib.

Uzun sochingizni o'rsangiz tarab,

Boqsa degan edim oy ham suqlanib [3, 12].

O‘z yurtining, millatining suluvlarini birgina o‘sma qo‘yishlari va sochlarini o‘rib yurishlari bilan xatto oyni ham bu go‘zalikka xavas qilishi va suqlanishi mumkinligini oddiy, xalqona so‘zlar bilan go‘zal tarzda ifodalab bermoqda. Bu o‘rinda an‘analarga sodiq qolish ham aytib o‘tilmoqda. Chunki o‘sma qo‘yish, soch o‘rish nafaqat o‘zbek millatining, balki butun bir turkiy xalqlar orasida asrlar davomida shakllangan milliylikning bir ko‘rinishidir. Mana shu misralarning o‘zidanoq uni o‘qigan har bir o‘zbek o‘zida faxr, g‘urur kabi xislatlarni mujassam etishga urinishi tabiiy, albatta.

Ziyo oqqan men yurgan yo‘l-yo‘lakka

Shom-u Iroq zor termilur o‘zbekman,

Dunyolarni o‘rantirgan ipakka

Tilla qo‘ng‘iroqli karvon O‘zbekman [4, 45].

Ushbu misralar orqali shoir har bir nafasimizda ham “o‘zbekman” deya g‘ururlanishga arzigulik asoslar keltiradi. Bilamizki, Sharq xalqlarida, xususan, o‘zbek millatida shunday fazilatlar bor: ular Yevropa xalqlarida deyarli uchramaydi. Bu go‘zal fazilatlar hayo, ibo, or va andishadir. Ayniqsa, o‘zbek qizlari bu jihatdan yuksak bahoga ega.

Bardoshi oldida tog‘ – oddiy tuproq,

Ular etagidan jannat bir qadam.

Beayb Parvardigor, degandek biroq,

Yo‘q emas kichkina kamchiligi ham.

Sevadi,

Kuyadi,

Qiladi alam,

Dorga osing, ammo aytmas birovga.

Aytmay sevlashini sevganiga ham,

Tegib ketaverar boshqa kuyovga! [3, 78].

Ijodkorning ushbu she‘ri o‘zbek qizlarining ibo va andishasini ifodalayotgan sodda va ravon jumalarga to‘la. Aslini olib qaraganda, rostdan ham, hech bir o‘zbek qizi sevgisini oshkor etolmaydi. Ota roziligi, ona roziligi kabi muqaddas tushunchalarni qadrlaydi, ulug‘laydi. Asarda faqatgina milliy ruhiyat emas, balki o‘zbekona tarbiya ham yaqqol aks etgan. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev: “Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin, lekin ayni paytda, o‘zligini ham unutmasin”, – deydi. Shoir xuddi shu so‘zlarni she‘riy tarzda ifodalab bergan.

Asli Turkman qiz bir bahona xola,

Izlaganim edi sizlar kabi.

Qo‘msaganim hayo-momolarga xos

Sog‘inganim edi – Kumushbibilar [5, 34].

Xalqning milliyligi faqat uning ust-boshida emas, balki go‘zal xulqi, fe‘l-atvorida hamdir. Shoir yuqoridagi misralarida kimning avlodi ekanimizni unutmasligimizni ta‘kidlagan holda, nafaqat milliy liboslarda, balki o‘ziga xos bo‘lgan milliy fazilatlar bilan tarbiya topmog‘imizga chorlamoqda.

Umuman olganda, Muhammad Yusuf ijodi milliy ruhni aks ettirishda o‘ziga xos poetik maktab yaratgan bo‘lib, u nafaqat o‘z davri, balki bugungi kun o‘quvchisi uchun ham ma‘naviy-estetik ahamiyatini yo‘qotmagan. Shoir merosi milliy o‘zlikni anglash, uni qadrlash va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:



1. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Муҳаммад Юсуф замондошлар хотирасида / Муҳаррир У.Қўчқоров. – Тошкент: “Адиб” нашриёти, 2014. -232 б.
3. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. Шеърлар. Достонлар. Шоир ҳақида хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 288 б.
4. Муҳаммад Юсуф. Ulug‘imsan, Vatanim. –Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – 220 б.
5. Муҳаммад Юсуф. Erka kiyik.(she’rlar to‘plami). –Yozyovon.1992. – 71 б.
6. “Erkin Vohidov ijodining ma’naviy hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati” mavzusidagi Respublika ilmiy anjumani materiallari. – Toshkent, 2017.